

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA HUQUQIY KAFOLATLARNI KUCHAYTIRISH: YANGI YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR

Norkuziev Jamshid

Bekobod shahar adliya bo'limi boshlig'i

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni bilan belgilangan tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yangi mexanizmlar tahlil qilinadi. Xususan, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishga uch yillik moratoriy joriy etilishi, "Birinchi xato uchun – ogohlantirish" tamoyilining qo'llanilishi, "Ikkinchi imkon" iqtisodiy amnistiya, tadbirkorlik subyektlarining haqlilik prezumpsiyasi hamda tashabbuskorlik auditi instituti kabi yangiliklarning huquqiy va amaliy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mazkur mexanizmlarning davlat va tadbirkor o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish, ma'muriy yuklamani kamaytirish va tadbirkorlik muhitining barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik subyekti, huquqiy kafolat, tekshiruv, moratoriy, Biznes-ombudsman, iqtisodiy amnistiya, haqlilik prezumpsiyasi, ma'muriy javobgarlik, tashabbuskorlik auditi, davlat nazorati.

Kirish

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xususiyl mulk daxlsizligini ta'minlash va biznes yuritish uchun qulay huquqiy muhit yaratish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi davlat organlari bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy jihatdan aniq, shaffof va mutanosib bo'lishini talab etmoqda.

Davlat nazorati, soliq ma'murchiligi va tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishi bir tomondan qonuniylkni ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan tadbirkorlik subyektlariga ortiqcha ma'muriy bosimning oldini olishni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-175-son Farmoni tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Farmonda tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish, davlat organlari va tadbirkorlar o‘rtasidagi munosabatlarda tadbirkorning huquqiy maqomini mustahkamlash hamda tadbirkorlik faoliyatidagi xatolarni jazolashdan ko‘ra ularni bartaraf etishga ustuvor ahamiyat berish kabi yangi yondashuvlar belgilangan.

1. Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishga moratoriy: huquqiy mohiyat va ahamiyati

Farmonning eng muhim yangiliklaridan biri kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini har qanday tekshirishga uch yil muddatga moratoriy joriy etilishidir.

Mazkur moratoriy tadbirkorlik subyektlarini davlat nazoratidan butunlay ozod qilishni anglatmaydi. Aksincha, unda muayyan ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga ega istisnolar nazarda tutilgan. Jumladan, jinoyat ishi doirasidagi tekshiruvlar, inson sog‘lig‘iga ta‘sirini o‘rganish, mehnat qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish, fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish, QQSni qoplash hamda tadbirkorlik subyektini tugatish bilan bog‘liq tekshiruvlar moratoriydan mustasno etilgan.

Bu yondashuvni huquqiy jihatdan “nazoratni cheklash” emas, balki nazoratning mutanosibligini ta‘minlash mexanizmi sifatida baholash mumkin.

Chunki tadbirkorlik subyektiga nisbatan davlat nazoratining qo‘llanilishi qonuniy maqsadga ega bo‘lishi, zarur va mutanosib bo‘lishi kerak. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarining moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari yirik korxonalarga nisbatan cheklanganligi sababli, ortiqcha tekshiruvlar ularning iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu jihatdan, moratoriy tadbirkorlik muhitida barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiluvchi preventiv huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

2. “Samarali nazorat” tadbiri va Biznes-ombudsmanning roli

Moratoriy davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil — Biznes-ombudsman tomonidan “Samarali nazorat” tadbirining o‘tkazilishi ham muhim institutsional yangilikdir.

Mazkur mexanizm orqali nazorat organlarining oxirgi uch yillik tekshiruv faoliyati joyiga chiqqan holda o‘rganilishi nazarda tutilmoqda.

Bunda ikki jihatga e‘tibor qaratish lozim.

Birinchidan, nazorat organlarining faoliyati ustidan huquqiy nazorat kuchayadi.

Ikkinchidan, ilgari o‘tkazilgan tekshiruvlarning qonuniyligi va tadbirkorlarning huquqlari buzilgan-buzilmaganligi retrospektiv tarzda baholanadi.

Bu esa davlat nazorati tizimida “nazorat qiluvchi organ faoliyati ustidan nazorat” tamoyilini kuchaytiradi.

Agar tekshiruv o'tkazish tartibi buzilgan yoki noqonuniy tekshiruvlar aniqlansa, tadbirkorning buzilgan huquqlarini tiklash choralarning ko'rilishi huquqiy himoya mexanizmlarining samaradorligini oshiradi.

3. “Birinch xato uchun – ogohlantirish”: jazolovchi yondashuvdan profilaktik yondashuvga

Farmonda tadbirkorlarga moliyaviy jarimalar qo'llashda “Birinch xato uchun – ogohlantirish” qoidasi joriy etilishi nazarda tutilgan.

Mazkur tamoyil zamonaviy ma'muriy-huquqiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkorni har qanday holatda ham darhol moliyaviy jazoga tortish o'rniga, avvalo qonunbuzarlikni bartaraf etish imkoniyatini berish tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi.

Farmonda birinchi marta qoidabuzarlik sodir etgan, biroq fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga hamda o'zgalarning mol-mulkiga zarar yetkazmagan tadbirkorga jarima qo'llamasdan, kamchilikni bartaraf etish uchun 10 kun muddat berilishi belgilangan.

Mazkur yondashuvning mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: “Jazo — asosiy vosita emas, qonuniylikni ta'minlashning oxirgi chorasi.”

Bu esa tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda repressiv emas, balki preventiv-ma'muriy model shakllanayotganidan dalolat beradi.

4. Tashabbuskorlik auditi va soliq intizomini ta'minlash

Farmon bilan 2028-yil 31-dekabrgacha huquqiy eksperiment tariqasida o'rta va yirik tadbirkorlik subyektlari tomonidan auditorlik tashkilotlarini jalb qilgan holda soliq va yig'implarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini tekshirish bo'yicha tashabbuskorlik auditi mexanizmi joriy etilmoqda.

Mazkur mexanizm davlat nazoratining tadbirkorning o'z tashabbusiga asoslangan modelini shakllantirishi bilan ahamiyatlidir.

Agar tadbirkor o'z faoliyatidagi xato va kamchiliklarni mustaqil aniqlab, ularni belgilangan muddatda bartaraf etsa, unga nisbatan moliyaviy jarimalarning qo'llanilmasligi biznes vakillarini o'z faoliyatini ichki audit qilishga rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, auditorlik xulosasini soliq organi tomonidan tan olish mexanizmi davlat nazoratining muayyan qismini professional audit institutiga o'tkazishga xizmat qiladi.

Bu esa soliq nazoratiga ketadigan ma'muriy resurslarni kamaytirish, tadbirkorning o'zini o'zi nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq intizomini oshirish va auditorlik xizmatlari sifatini yaxshilash uchun huquqiy zamin yaratadi.

5. “Ikkinchi imkon” iqtisodiy amnistiyasi

Farmonda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun “Ikkinchi imkon” iqtisodiy amnistiyasining e'lon qilinishi ham alohida ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi.

Mazkur mexanizm tadbirkorlik subyektlariga ilgari yuzaga kelgan ayrim soliq va ma'muriy qarzdorliklarni qonunchilikda belgilangan shartlar asosida tartibga solish imkonini beradi.

Xususan, belgilangan muddatgacha soliq qarzi to'liq to'langanda ayrim penya summalarini hisobdan chiqarish, ilgari taqdim etilgan soliq hisobotlariga mustaqil ravishda tuzatish kiritish imkoniyatini berish, ayrim ma'muriy jarimalarning to'lanmagan qismini hisobdan chiqarish kabi mexanizmlar tadbirkorlik subyektlariga iqtisodiy faoliyatini "toza varaqdan" davom ettirish imkonini yaratadi.

"Ikkinchi imkon" iqtisodiy amnistiyasining yana bir muhim jihati shundaki, tadbirkor tomonidan o'z xatosini ixtiyoriy ravishda bartaraf etish rag'batlantirilmoqda.

Bunda davlatning maqsadi faqatgina qarzdorlikni undirish emas, balki tadbirkorni qonuniy faoliyatga qaytarishdan iborat.

6. Tadbirkorlik subyekting haqlilik prezumpsiyasi

Farmonning eng muhim huquqiy yangiliklaridan biri davlat organi va tadbirkor o'rtasidagi ommaviy-huquqiy munosabatlarda "tadbirkorlik subyekting haqlilik prezumpsiyasi"ni joriy etishdir.

Mazkur prinsipga ko'ra, davlat organi tomonidan aksi isbotlanmaguncha tadbirkor qonunchilikka muvofiq harakat qilgan va o'z majburiyatlarini lozim darajada bajargan deb hisoblanadi.

Bu qoida davlat va tadbirkor o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning paradigmasini o'zgartiradi.

An'anaviy yondashuvda tadbirkor ko'pincha o'zining qonuniyligini isbotlashga majbur bo'ladigan subyekt sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, yangi yondashuvda huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishining qonuniyligi va asoslanganligini isbotlash majburiyati davlat organining zimmasiga yuklatilmoqda.

Ayniqsa, sudda yoki nizoni hal qiluvchi ma'muriy organda huquqiy ta'sir chorasining asosli, qonuniy va mutanosib ekanligini, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etilganligini isbotlash majburiyatining davlat organiga yuklatilishi tadbirkorning protsessual huquqlarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

7. "Bartaraf etib bo'lmaydigan shubhalar tadbirkor foydasiga" tamoyili

Farmonda qonunchilikdagi bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar, noaniqliklar va tushunmovchiliklar tadbirkorning foydasiga talqin qilinishi belgilangan.

Mazkur qoida huquqiy aniqlik va huquqiy ishonch tamoyillarining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Agar davlat organi tomonidan taqdim etilgan dalillar huquqbuzarlik faktini tasdiqlash uchun yetarli bo'lmasa, bunday shubhalarning tadbirkor foydasiga talqin qilinishi davlat organlarining dalillarni puxta va har tomonlama yig'ishiga xizmat qiladi.

Bu prinsip, ayniqsa, ma'muriy nizolarni ko'rib chiqishda muhim ahamiyatga ega.

8. Ma'muriy sudlar faoliyatida yangi huquqiy yondashuv

Farmon bilan ma'muriy sud hal qiluv qarorida davlat organi zimmasiga o'z qarorini qayta ko'rib chiqish majburiyati yuklatilgan taqdirda, sud o'z huquqiy pozitsiyasini bayon etishi va ushbu pozitsiya davlat organi tomonidan majburiy ravishda inobatga olinishi belgilangan.

Mazkur norma sud qarorining amaliy samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Chunki sud tomonidan davlat organining qarorini bekor qilish yoki uni qayta ko'rib chiqish majburiyatini yuklashning o'zi yetarli emas. Davlat organi sud qarorini formal ravishda bajarib, avvalgi qaror mazmunini deyarli takrorlashi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish uchun sudning huquqiy pozitsiyasining majburiyligi muhim kafolat hisoblanadi.

Bu, o'z navbatida, sud hokimiyatining davlat boshqaruvi ustidan huquqiy nazoratini kuchaytiradi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-175-son Farmoni tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish va davlat bilan biznes o'rtasidagi munosabatlarni yangi tamoyillar asosida tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilaydi.

Farmonning asosiy konseptual ahamiyati davlat nazoratining jazolashga yo'naltirilgan modelidan profilaktik, mutanosib va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi modelga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutishida namoyon bo'ladi.

Xususan, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishga moratoriy joriy etilishi, "Birinci xato uchun – ogohlantirish" tamoyili, "Ikkinchi imkon" iqtisodiy amnistiyasi, tashabbuskorlik auditi hamda tadbirkorlik subyektining haqlilik prezumpsiyasi davlat va biznes o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tubdan takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, davlat organining tadbirkorga nisbatan qo'llagan huquqiy ta'sir chorasi yoki qarorining qonuniyligi, asosiligi va mutanosibligini isbotlash majburiyatining davlat organiga yuklatilishi tadbirkorning protsessual huquqlarini mustahkamlovchi muhim kafolatdir.

Umuman olganda, mazkur Farmonning samarali amalga oshirilishi nafaqat tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytiradi, balki davlat boshqaruvida ishonch, mutanosiblik, huquqiy aniqlik va qonuniylik tamoyillarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Farmonda nazarda tutilgan yangi mexanizmlarning amaliy samaradorligi ularni amalga oshiruvchi davlat organlarining huquqni bir xil va to'g'ri

qo'llashi, sud amaliyotining shakllanishi hamda tadbirkorlik subyektlarining o'z huquqlarini bilishi va ulardan faol foydalanishiga bevosita bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
6. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining "Davlat nazorati to'g'risida"gi qonunchilik hujjatlari.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
11. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy materiallar.